

**ALOHIDA TA'LIM EHTIYOJLARI BO'LGAN HAR BIR BOLANING
INKLYUZIV TA'LIM OLISH HUQUQINI TA'MINLASHGA QARATILGAN
CHORA-TADBIRLARNI AMALGA OSHIRISH.**

*G'aniyeva Sabrina G'ayrat qizi
O'zbek tili va adabiyoti fakulteti 615-23-guruh talabasi.*

Annotatsiya: Hozirgi vaqtida dunyoning barcha mamlakatlarida va jamiyatning barcha ijtimoiy guruhlarida alohida ehtiyojga ega bo'lgan bolalar bor. Ushbu maqolada har bir bolaga nuqsoni sababli bajara olmaydigan qobiliyatlarini emas, balki mavjud nuqsonqa qaramay, u bajara olishi mumkin bo'lgan aqliy va jismoniy qibiliyatlarini ko'rsatib o'tmoqchiman. Qolaversa, bunda inklyuziv ta'lism ahamiyati xususida so'z boradi.

Kalit so'zlar: Aloida ehtiyojga ega bolalar, inklyuziv ta'lism, ijtimoiy moslashuv, 2019-yil 29-aprel, PF-5712-son, ota-onha ko'magi.

Abstract: Currently, in all countries of the world and in all social groups of society, there are children with special needs. In this article, I would like to show each child not the tasks that he cannot perform due to his disability, but the mental and physical tasks that he can perform despite the existing disability. In addition, this article discusses the importance of inclusive education.

Keywords: Children with special needs, inclusive education, social adaptation, April 29, 2019, No. PF-5712, parental support.

KIRISH.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 29-apreldagi "O'zbekiston Respublikasi Xalq ta'limi tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi PF-5712-son Farmoniga muvofiq O'zbekistonda inklyuziv ta'limi rivojlantirish, alohida ta'lism ehtiyojlari bo'lgan bolalarga ta'lism-tarbiya berish tizimini takomillashtirish hamda ularga ko'rsatiladigan ta'lism xizmatlari sifatini yaxshilash maqsadida olib borgan chora-tadbirlari to'g'risidagi qarori qabul qilingan.

- 2020 — 2025-yillarda xalq ta'limi tizimida inklyuziv ta'limi rivojlantirish konsepsiysi;
- 2020 — 2025-yillarda xalq ta'limi tizimida inklyuziv ta'limi rivojlantirish konsepsiyasini 2020-2021-yillarda amalga oshirish bo'yicha "yo'l xaritasi" ;
- Aloida ta'lism ehtiyojlari bo'lgan bolalar ta'limi 2025-yilgacha rivojlantirishning maqsadli ko'rsatkichlarini tasdiqlash —to'g'risidagi farmoni berilgan.

Bugungi kunda O'zbekiston Respublikasida alohida ta'lism ehtiyojlari bo'lgan bolalarni ijtimoiy muhofaza qilishni yanada kuchaytirish, ularga hayotda teng

imkoniyat va sharoitlar yaratib berish masalasi dolzarb ahamiyatga ega bo'lib qoldi. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev BMT Inson huquqlari bo'yicha kengashining 46-sessiyasidagi nutqida ham alohida ehtiyojga ega bo'lgan shaxslarning huquqlarini ta'minlashga jiddiy e'tibor qaratilishini ta'kidladi.

Nogironligi bo'lgan shaxslarning huquq va manfaatlarni himoya qilish katta va ko'pgina omillarga bog'liq masala hisoblanadi. Shu bois, jamiyatimizning bir bo'lagi bo'lgan maxsus yordamga muhtoj bolalarni ijtimoiy qo'llab-quvvatlash, ularga ta'lim-tarbiya berish, ularning sog'lom bolalar qatoridan o'rinni olib o'z qobiliyatini, imkoniyatlarini ko'rsata olishiga, ma'naviy kamol topishiga sharoit yaratishga katta e'tibor qaratilmoqda. Avvalo, O'zbekiston Respublikasida inklyuziv ta'limni rivojlantirish, alohida ta'lim ehtiyojlari bo'lgan bolalarga ta'lim-tarbiya berish tizimini takomillashtirish hamda ularga ko'rsatiladigan ta'lim xizmatlari sifatini yaxshilash maqsadida ko'plab normativ-huquqiy hujjatlar qabul qilindi.

Xususan, 2020 yil 15- oktyabrdan qabul qilingan O'zbekiston Respublikasining "Nogironligi bo'lgan shaxslarning huquqlari to'g'risida"gi qonunida nogironligi bo'lgan shaxslarning huquqlarini ta'minlashning huquqiy asoslari mustahkamlangan. Mazkur qonunga ko'ra nogironligi bo'lgan bolalar (bola) — barqaror jismoniy, aqliy, sensor (sezgi) yoki ruhiy nuqsonlari tufayli hayotiy faoliyati cheklanganligi munosabati bilan davlat va jamiyat tomonidan ijtimoiy yordam ko'rsatilishiga hamda o'z huquqlari va qonuniy manfaatlari himoya qilinishiga muhtoj o'n sakkiz yoshgacha bo'lgan shaxslar hisoblanadi . Qonunga ko'ra Nogironligi bo'lgan shaxslar barcha darajalardagi ta'lim tashkilotlarida ta'lim olish va o'z qobiliyatini yanada to'liqroq rivojlantirish uchun butun umri davomida ta'lim olish hamda jamiyat va davlat hayotida ishtirok etish huquqiga ega.

Davlat nogironligi bo'lgan shaxslarning inklyuziv ta'limini rivojlantirishni, ularning ta'lim olishi va kasbiy tayyorgarlikdan, qayta tayyorlashdan va malaka oshirishdan o'tishi uchun zarur shart-sharoitlar yaratilishini kafolatlashi, ta'lim tashkilotlari davlat organlari bilan birgalikda nogironligi bo'lgan bolalarning maktabgacha, maktabdan tashqari va umumiy o'rta ta'lim olishini, shuningdek, o'rta maxsus, professional, oliy va oliy o'quv yurtidan keyingi ta'limi olishini ta'minlashi qonunda mustahkamlab qo'yilgan.

ASOSIY QISM.

O'zbekistonda alohida ta'lim ehtiyojlari bo'lgan bolalarning inklyuziv ta'lim olish huquqini ta'minlash borasida amalga oshirilayotgan chora-tadbirlar quyidagilardan iborat:

- Huquqiy-me'yoriy asoslar: Ushbu qonunning 20-moddasida inklyuziv ta'lim olish huquqi belgilangan bo'lsa-da, jismoniy yoki ruhiy rivojlanishida nuqsonlari bo'lgan bolalar uchun maxsus ta'lim muassasalari yoki maxsus sinflar tashkil etilishi

ko‘zda tutilgan. Bu esa inklyuziv ta'limni umumiyligi muassasalarida to‘liq joriy etishda cheklovlar keltirib chiqarishi mumkin.

"Ta'lim to'g'risida"gi qonun: 638-sonli qaror (12.10.2021)

Ilmiy-amaliy tadqiqotlar va tashabbuslar:

● "Inklyuziv ta'lim" ilmiy-amaliy laboratoriysi: O‘zbekiston Milliy universitetida "Inklyuziv ta'lim" ilmiy-amaliy laboratoriysi tashkil etildi. Ushbu laboratoriya inklyuziv ta'lim uchun mahsulotlar yaratish orqali alohida ta'lim ehtiyojlari bo‘lgan o‘quvchilar va talabalar uchun o‘quv-ilmiy adabiyotlar hamda zamонавиyy axborot vositalaridan mustaqil foydalanish imkoniyatini kengaytirishga xizmat qiladi.

Mayjud muammolar va istiqbollar:

● Huquqiy tafovutlar: Amaldagi qonunchilikda inklyuziv ta'limga oid ba'zi cheklovlar mavjud bo‘lib, bu umumiyligi muassasalarida inklyuziv ta'limni to‘liq joriy etishda muammolar keltirib chiqarishi mumkin.

● O‘qituvchilarni tayyorlash: Ushbu soha samarali amalga oshirilishi uchun o‘qituvchilarni maxsus tayyorlash va ularning malakasini oshirish zarur.

● Jamoatchilik ongini oshirish: Alohida ta'lim ehtiyojlari bo‘lgan bolalarga nisbatan bag‘rikenglik va hurmatni shakllantirish lozim.

O‘zbekistonda alohida ta'lim ehtiyojlari bo‘lgan bolalarning inklyuziv ta'lim olish huquqini ta'minlash yo‘lida huquqiy-me'yoriy hujjatlar qabul qilinib, ilmiy-amaliy tadqiqotlar olib borilmoqda. Biroq, bu sohada hali ham yechimini kutayotgan muammolar mavjud bo‘lib, ularni bartaraf etish uchun kompleks yondashuv va jamoatchilikning faol ishtiroki talab etiladi.

Agar nogironligi bo‘lgan bolalarni ta'lim muassasalarida o‘qitishning vaqtinchasi imkon bo‘lmasa, ta'lim sohasidagi davlat boshqaruvi organlari va ta'lim muassasalarini nogironligi bo‘lgan bolalarning sohaga oid shifokorlar tavsiyalari asosida hamda ota-onasining yoki boshqa qonuniy vakillarining roziligi bilan uyda o‘qitilishini ta'minlaydi.

Nogironligi bo‘lgan bolalarni uyda o‘qitish O‘zbekiston Respublikasining Davlat byudjeti mablag‘lari hisobidan amalga oshiriladi.

Davlat nogironligi bo‘lgan bolalarning bepul umumiyligi o‘rta, maktabdan tashqari, o‘rta maxsus va professional ta'lim olishini kafolatlaydi.

Nogironligi bo‘lgan shaxslarni to‘lovdan ozod qilgan holda yoki imtiyozli shartlar asosida maxsus o‘quv qo’llanmalari va adabiyotlar, shuningdek surdotarjimonlar xizmatlaridan foydalanish imkoniyati bilan ta'minlash O‘zbekiston Respublikasining Davlat byudjeti mablag‘lari hisobidan amalga oshiriladi.

O‘quvchilar, ota-onalar yoki ota-onalar o‘rnini bosuvchi shaxslar, pedagogik, tibbiy va boshqa xodimlar ixtisoslashtirilgan ta'lim muassasalarining ta'lim jarayoni ishtirokchilari hisoblanadi. Ixtisoslashtirilgan ta'lim muassasalari o‘quvchilari bepul

umumiy o'rta ta'lim olish, tibbiy xizmatdan foydalanish hamda ixtisoslashtirilgan ta'lim muassasalari uchun belgilangan norma va qoidalar asosida bepul oziq-ovqat bilan ta'minlanish, turli tadbirlarda (konferensiylar, olimpiadalar, ko'rgazmalar va tanlovlarda) qatnashish huquqiga ega. Ixtisoslashtirilgan ta'lim muassasalariga yo'llangan chin yetim bolalar va ota-onas qaramog'idan mahrum bo'lган bolalar maqomi bo'yicha "Mehribonlik" uylari tarbiyalanuvchilariga tenglashtiriladi. Ixtisoslashtirilgan ta'lim muassasalarida chin yetim bolalar va ota-onas qaramog'idan mahrum bo'lган bolalar, shuningdek, turli sabablarga ko'ra yakshanba, bayram va ta'til kunlari uylariga keta olmaydigan o'quvchilar uchun sutka davomida ishlaydigan guruhlar tashkil etiladi. Ixtisoslashtirilgan ta'lim muassasasining o'quvchilari muassasaning ustavi va ichki tartibiga, shuningdek, sanitariya normalari va qoidalariga amal qilishlari shart. Ixtisoslashtirilgan ta'lim muassasasida o'quvchilarning boshqa huquq va majburiyatlar qonunchilik hujjalari uchun ixtisoslashtirilgan ta'lim muassasasining ustaviga muvofiq belgilanadi. Tegishli soha bo'yicha oliv ma'lumotli, kasbiy tayyorgarlikka va yuksak axloqiy sifatlarga ega shaxslar ixtisoslashtirilgan ta'lim muassasalarida pedagogik va tibbiy faoliyat bilan shug'ullanish huquqiga egadir. Ixtisoslashtirilgan ta'lim muassasasining pedagog-o'qituvchilari o'zlariga yuklangan majburiyatlardan tashqari shaxsni shakllantirish va nuqsonlarini korreksiyalash, jismoniy va psixik nuqsonlarini bartaraf etish, nuqsonlar bilan bog'liq bo'lган bilish faoliyatidagi o'ziga xosliklarni me'yorga keltirish, bilimga oid qiziqishlari va qobiliyatlarini rivojlantirish sohasida ish olib boradilar. Ixtisoslashtirilgan ta'lim muassasasining tarbiyachisi rivojlanishdagi nuqsonlarni korreksiyalash ishlarida o'qituvchi ishlarini davom ettiradi, jismoniy yoki psixik nuqsonlar sababli yuzaga keladigan psixik yoki jismoniy rivojlanish xususiyatlarini e'tiborga olgan holda o'quvchilarga individual yondashuvni amalga oshiradi, o'z guruhidagi o'quvchilarning hayoti va salomatligi saqlanishi uchun javob beradi.

XULOSA.

O'zbekistonda alohida ta'lim ehtiyojlari bo'lган bolalarning inklyuziv ta'lim olish huquqini ta'minlashga qaratilgan islohotlar so'nggi yillarda faol olib borilmoqda. Davlat tomonidan qabul qilingan qarorlar va qonunlar, xalqaro tashkilotlar bilan hamkorlikdagi loyihalar, shuningdek, ilmiy tadqiqotlar natijalari inklyuziv ta'lim tizimini takomillashtirishga xizmat qilmoqda. Xulosa qilib aytganda, O'zbekistonda inklyuziv ta'limni rivojlantirish yo'lida katta qadamlar tashlanmoqda, ammo tizimni yanada takomillashtirish va barcha bolalar uchun teng imkoniyatlarni yaratish uchun kompleks yondashuv zarur. Bu yo'naliishda davlat, jamoatchilik, xalqaro tashkilotlar va ilmiy-tadqiqot muassasalari hamkorlikda ishlashi lozim. Kelgusida ta'lim infratuzilmasini yaxshilash, pedagoglar malakasini oshirish va jamiyatda inklyuziv ta'lim madaniyatini rivojlantirish orqali bu sohada yanada katta yutuqlarga erishish mumkin. Inklyuziv ta'limga muhtoj bolalarni ta'limga jalb etish zarur. Ularning zaif

tomonlarini shu tariqa unuttirish yoki bo‘lmasa, tuzatish mumkin. Alloh barchaga o‘ziga xos qobiliyat ato etgan. O‘sha qobiliyatlarni oshkora etish, rivojlantirish o‘qituvchi hamda insonning o‘ziga bog‘liq.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Абдуллаева, Ш. А. (2018). СОВРЕМЕННЫЕ ПЕДАГОГИЧЕСКИЕ ПРОБЛЕМЫ СРЕДНЕЙ ШКОЛЫ. Редакционная коллегия, 459.
2. Erkaboyeva, N. S. (2016). FEATURES OF MODERN UZBEK FAMILIES. Ученый XXI века, (4-1), 36-39.
3. "Ta'lim hamma uchun milliy dasturini joriy qilish masalalari" mavzusidagi ilmiy-amaliy konferensiya materiallari. Toshkent-2005 yil.
4. Ture Yonson "Inklyuziv ta'lim" Opereyshen Mersiy Toshkent-2003 yil. O'qituvchilar uchun qo'llanma.
5. Fayziyeva U.Yu., Abdurazakova D. Do'stona munosabat muhitidagi mакtab. O'XTV Avloniy nomidagi XTRXMOMI, BMT Yunisyef. XBJ. T., 2005.
6. Нишанбаева, Э. З., & Абдухалилов, А. А. (2020). ИНКЛЮЗИВ ТАЪЛИМНИ РИВОЖЛАНИШИДА ИЖТИМОЙ ШЕРИКЛИКНИНГ ТУТГАН УРНИ. ЖУРНАЛ СОЦИАЛЬНЫХ ИССЛЕДОВАНИЙ, (SI-1).
7. Shomurotova, N. (2020). PSYCHOLOGICAL PECULIARITIES OF FAMILY RELATIONS TO ADVERTISING. Архив научных исследований, (21).
8. Hamrokulova, S. (2022). PEDAGOGICAL-PROGRAMM IMPLEMENTATION OF THE DEVELOPMENT OF ENVIRONMENTAL EDUCATION IN HIGHER CLASS PUPILS OF SECONDARY SCHOOLS. CENTRAL ASIAN JOURNAL OF EDUCATION AND COMPUTER SCIENCES (CAJECS), 1(4), 52-56.